

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

Received: 10 July 2024
Accepted: 15 July 2024
Published: 25 July 2024

Article / Original Paper

KEY ISSUES OF TEACHING PHILOSOPHICAL SCIENCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Aripova Zulfiyaxon Salijanovna

Associate Professor of the Department of Humanities, Andijan Machine Building Institute

Abstract. In this article, the theoretical basis of teaching philosophical subjects in higher educational institutions is researched, and attention is focused on determining the possibilities of effective use of modern pedagogical technologies in teaching this subject. The main goal is to focus students' attention on the current problems of today's philosophy, to form their attitude to these problems, to try to develop methods of solving these problems, to strengthen their independent attitude towards existing views and the ability to think correctly.

Key words: philosophy, higher education institutions, modern pedagogical technologies, philosophical problems, innovative technologies

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Aripova Zulfiyaxon Salijanovna

Gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, Andijon mashinasozlik instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida falsafiy fanlarni o'qitishning nazariy asoslari tadqiq etilgan bo'lib, ushbu fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan. Asosiy maqsad talaba yoshlarda bugungi kundagi falsafaning dolzarb muammolariga e'tiborlarini qaratish, ushbu muammolarga munosabatlarini shakllantirish, ushbu muammolarni yechish usullarini ishlab chiqishga harakat qilish, mavjud qarashlarga nisbatan mustaqil munosabati va to'g'ri fikrlash qobiliyatini mustahkamlashdir.

Kalit so'zlar: falsafa, oliy ta'lim muassasalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, falsafiy muammolar, innovatsion texnologiyalar

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N09>

Kirish. Jamiyatni demokratik yangilash, modernizatsiya qilish jarayonida oliy ta'limning muhim vazifalardan biri talabalarning falsafiy tafakkur qilish madaniyatini o'stirish, ularning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Falsafa fanining dolzarbligi o'quv jarayonida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi axborotlashgan sivilizatsiya taraqqiyoti bilan yanada ortadi. Erishilgan yutuqlar yoshlarda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarini estetik idrok qilish, ularda voqealarning hodisa sifatida namoyon bo'lishi emas, balki axloqiy-estetik mohiyatini chuqur anglash malakalarini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni estetik tarbiyalash masalasi dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada fikr yuritar ekan yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Bugungi global makonda,

o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlodlar biyasining o'zni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas"[1, B 292], - deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Ma'furaviy kurashlar keskinlashib borayotgan bugungi kunda falsafa ilmini o'rganishning dolzarabligi ortmoqda. Xususan, yoshlarning ongi va tafakkurini izdan chiqarishga qaratilgan urinishlarning asl mohiyati, ularning salbiy oqibatini anglash, xavf-xatarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqsizlik g'oyalaridan himoya qilish[3] masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga ijtimoiy fanlarni o'qatishga orqali erishiladi. Davlatimiz rahbarining "Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texнократik yondashuv, bu boradigi masalalarga ajabtovur bir "o'gay" qarash shakllanib qolgan.

Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qayday yo'nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o'qitish va o'rgatish bo'yicha yaxlit konsepsiya yo'q"[2, 231], - daden fikrlari ham bejiz emas.

Eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning dasturiy-metodik ta'minoti, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning milliy va jahon ta'lim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish bo'yicha normativ-xuquqiy hujjatlar o'rganib chiqildi.

Abdulla Sher muallifligida yozilgan "Axloqshunoslik", "Estetika" fanidan darslik, Abdulla Sher, Bahodir Husanovlar hammuallifligida yozilgan "Estetika" uslubiy qo'llanmasi, Erkin Umarov muallifligida yozilgan "Estetika" fanidan darslik, L.A. Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Obidjanova, G.K.Masharipova tomonidan tayyorlangan "Professional etika va etiket" darslik, L. Muhammadjonova muallifligida yozilgan "Amaliy etika va estetika" o'quv qo'llanma, D.A.Pulatova, O'.K. Jalolova, G.M. Ro'zmatovalar muallifligidagi "Axloqshunoslik" O'quv qo'llanma, E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyx'o'jayevalar hammuallifligida yozilgan "Estetika asoslari" o'quv qo'llanmasi va ko'plab etika va estetika faniga bag'ishlangan o'zbek va xorijiy olimlarning darslik, o'quv qo'llanma hamda maqolalari keng foydalanildi.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash muammosi bo'yicha xorijiy mamlakatlar va vatanimiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov [5,B.592] kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini tatbiq etish jarayonida ta'lim sifatini boshqarishga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlardan bo'lib, ularda ta'limni tashkil etishning nazariy, metodologik, tashkiliy, pedagogik jihatlari, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammosi, uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga ko'ra ta'limning barcha turlari ochib berilgan.

Xorijiy mamlakat olimlari I.V.Robert, A.Yu.Uvarov, A.Bork, M.Klark, D.Xen kabi olimlar pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda multimedia vositalaridan foydalanish nazariyasi bo'yicha tadqiqot olib borishgan.

Muhokama. Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan milliy ta'lim tizimi yaratildi. Shu bilan birga, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga oid yondashuvlarni jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish”[5] kabi vazifalar belgilanib, bu borada bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarda ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzining barcha qit'alarida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda integrallashuv hamda globallashuv jarayoni jadal kechayotgan davrda xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni va ilmiy-metodik bazasini mustahkamlash, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. XXI asr – ilm-fan va texnika taraqqiyoti, axborot kommunikatsiya va texnologiyalarining ulkan yutuq va imkoniyatlari asri. Ayni vaqtda insonga o'z avlodlarining baxtli hayoti uchun muhim talablar mas'uliyati yuklanmoqda. Har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ega shaxs nafaqat ota-onalar, balki mustaqil davlatimiz siyosatining bosh maqsadi bo'lib, bu jarayonda ta'lim-tarbiyaning o'zni beqiyosdir. Yosh avlodni tarbiyalash barchamiz uchun hayotiy muhim vazifa ekanligini nazarda tutib, Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday degan edilar: “Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi”.

Kadrlar tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishish uchun ta'limning yakuniy maqsadlarini adekvat anglash, takomillashtirish va innovatsion zamonaviylashtirish, ayniqsa, o'qitishning interfaol usullari va zamonaviy didaktik vositalari, supertyutorlar (mashq qildiruvchi dasturlar), kasbiy tyutorlar (kasbiy faoliyaga oid dasturlar asosida yaratilgan o'quv materiallari) shaklidagi o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini qo'llash va rivojlantirish borasida keng qamrovli maqsadli ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalardan biridir. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda falsafa ilmining o'zni beqiyosdir.

O'qitish jarayoniga texnologik yondashuv bugun paydo bo'lgan emas. XX asr o'rtalaridan boshlab o'quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ga jiddiy urinish boshlangan. Chexiyalik pedagog Yan Amos Komenskiy inson tabiatining yagona qonuni bo'yicha amalga oshiriladigan

o'qitishning umumiy tartibini topishga intilgan. Uning e'tiroficha, o'qitishning yagona takomillashgan metodi yaratilganda "muvozanatlashtiruvchi og'irlik bilan ishlaydigan soat" kabi quvonarli bo'lgani kabi quvnoq va yoqimli bo'lar edi va nihoyat, faqat shunga o'xshash sun'iy instrument erishishi mumkin bo'lgani kabi ishonchli ishlar edi.

Natijalar. Globallashuv davrida ta'lim jarayoniga an'anaviy tushunchalar qatoriga yangi vositalar kirib kelmoqda. O'qitish va ta'lim jarayoni uchun bular yangilik emas, ammo masofaviy o'qish va masofaviy ta'lim kabi iboralarning paydo bo'lishi ta'lim tizimining takomillashuvini ko'rsatib, texnika asrining asosiy maqsad va vazifalarini belgilovchi kuchga aylanmoqda.

O'qitish - bu ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tizimli bilim va ko'nikmalar beradigan jarayon. Ta'lim esa o'qitishning natijasi bo'lib, shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Masofaviy o'qitish - eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllarini o'z ichiga olgan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaklidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va qoidalar asosida o'quv sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiladi. Bu jarayonda o'qish vaqti va joyi muhim emas.

Masofaviy ta'lim - masofadan turib axborot almashuviga asoslangan, maxsus axborot muhit yordamida aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi kompleksdir.

Masofaviy o'qitishning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va uning shakllari soha mutaxassislarini qiziqtirishi tabiiy. Yigirmanchi asr oxirida insoniyat axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq muammolarga duch keldi.

Ta'lim, ishlab chiqarish va jamiyatga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib keldi. Internet global kompyuter tarmog'ining rivojlanishi butun dunyo ta'lim tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochdi.

O'quv muassasalarining texnik ta'minotidagi keskin o'zgarishlar va jahon axborot resurslariga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda masofaviy o'qitish shaklini vujudga keltirdi.

Masofaviy o'qitish - internet texnologiyalar yoki boshqa interaktiv usullar orqali o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni ta'minlovchi, barcha o'quv jarayoni komponentlarini o'z ichiga olgan tizimdir. Masofaviy o'qitish tizimi o'zining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari tanlangan konsepsiyaga asoslangan o'quv-tarbiyaviy jarayonni ta'minlovchi metod va uslublar majmuasidir.

O'zbekistonda ta'lim tizimining axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalarga asoslangan faoliyatlari keng yo'lga qo'yilgan. Bu, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida samarali tatbiq etilmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limning joriy etilishi pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hukumat va Prezidentning ko'plab qaror va farmonlarida ta'kidlanganidek, oliy o'quv yurti pedagoglarining kasbiy mahoratini oshirishda uzluksiz ta'limning ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda barcha oliy o'quv yurtlari masofadan o'qitish uchun zarur texnologiyalar bilan ta'minlangan va internet tarmog'iga ulanib, masofaviy ta'lim yo'lga qo'yilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, masofaviy ta'lim zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan innovatsion ta'lim shakli bo'lib, u an'anaviy ta'lim tizimini to'ldiradi va kengaytiradi. U o'quvchilarga vaqt va makon chegaralaridan tashqarida bilim olish imkoniyatini beradi, shu bilan birga ta'lim jarayonini individuallashtirish va moslashuvchan qilish imkonini yaratadi. O'zbekistonda masofaviy ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda, bu esa mamlakatning ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirishga va raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Avstriya, Kanada, Angliya, Germaniya, Gresiya, Hindiston, Isroil, Eron, Italiya, Niderlandiya, Shvesariya, Shotlandiya, Norvegiya, Shimoliy Afrika davlatlarining oliy ta'lim muassasalarida alohida Etika va Estetika kafedralari va markazlari mavjud.

Mazkur universitetlar hozirgi paytda jahon oliy ta'lim muassasalarining reytingida kuchli o'ntalikning ichida turibdi[6, 24-25].

O'zbekiston ta'lim tizimida axloqiy va estetik bilimlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar, qabul qilingan qonun va dasturlar axloqiy madaniyatning yuksak namunalarini o'zlashtirgan, milliy va zamonaviy estetik qarashlarni uyg'unlashtira oladigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Bu kadrlarni jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritishi kelajakdagi asosiy maqsad hisoblanadi.

Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida estetika fanini o'qitish jarayoni samarali tashkil etilgan. Barcha oliy o'quv yurtlarida falsafa alohida fan sifatida o'qitilishi, unga ajratilgan soatlarning ko'pligi va o'qitish natijalarining yuqori samaradorligi buning yaqqol misoli hisoblanadi. Bu esa talabalarga fanni chuqur o'zlashtirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda insoniyat bir qator axloqiy va estetik muammolarga duch kelmoqda:

- Insonlar hayoti, sog'lig'i, ruhiy va ma'naviy dunyosi bilan bog'liq tadqiqotlarning axloqiy jihatlari;
- Gen injeneriyasi, transplantologiya va evtanaziya masalalari;
- Sog'liqni saqlash tizimini boshqarish, farmakologiya va xususiy tibbiy xizmat bilan bog'liq masalalar;
- Demografik nazorat, reproduktiv salomatlik va oilani rejalashtirish;
- Og'ir kasalliklarning so'nggi bosqichidagi bemorlarga yordam berish;
- Insonning biologik olamda olib boradigan ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'liq masalalar.

Etika va estetika fanlarining asosiy vazifalaridan biri insonlarning e'tiborini ushbu masalalarga qaratish va ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Bundan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Etika va estetika fani yoshlarda jamiyatdagi ulug'vor ishlarning mohiyatini anglashga va Vatan taraqqiyoti uchun fidokorona mehnat qilishga undaydi.

2. Fojeaviylik va kulgililik xususiyatlari hayotda va san'atda insonni tafakkur qilishga o'rgatadi, ma'naviy yuksaklikka da'vat etadi.

3. Estetika fanini o'rganish barcha soha vakillari uchun zarur, chunki har bir inson o'z faoliyatida yuksak estetik madaniyatni namoyon etishi kerak.

4. Fanni samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish va talabalarning qiziqishini oshirish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

5. "Hozirgi zamonda etika va estetikaning dolzarb muammolari" mavzusini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ko'rgazmali qurollardan foydalanish tavsiya etiladi.

6. Darslarda hujjatli filmlar, buyuk ajdodlarimizning jasorati va bunyodkorlik ishlari aks etgan video materiallardan foydalanish samarali natija beradi.

7. Darslarni faqat auditoriyada emas, balki teatr va muzeylarda ham tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, etika va estetika fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan unumli foydalanish orqali talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning axloqiy va estetik tarbiyasini yuksaltirish, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglashi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Etika va estetika fanlarini o'qitish jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, talabalarni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashuvga undash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy axloqiy va estetik muammolarni tahlil qilish, ularning yechimlarini topishga qaratilgan munozaralar va seminarlar o'tkazish orqali talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida etika va estetika fanlarini o'qitishda xalqaro tajribalarni o'rganish va qo'llash, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.O'zbekiston. 2021. B-292.
2. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.O'zbekiston. 2021. B-231.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
5. Qurbonov SH.E., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. / T.: "Turon-Iqbol", 2006. – B. 592.
6. Muxamedjanova L.A. Etika va estetika fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'ZMU, 2017, B. 24-25

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).